



PSIXOLOGIYADA XAYOLNING O'RGANILISHI VA BOSHQA PSIXIK JARAYONLARGA ALOQADORLIGINI IZOHLASH.

Musurmonov Dilshod

Termiz davlat universiteti

*Psixologiya ta'lim yo'nalishi
talabasi*

S.B. Almardanova

Ilmiy rahbar: *Termiz davlat universiteti*

Psixologiya kafedrası dotsenti

Annotatsiya: *Bu maqolada xayol jarayonining psixologik mohiyati va uning inson psixik faoliyatidagi o'rni, boshqa bilish jarayonlari idrok, xotira va tafakkur jarayonlari bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Xayolning o'qish jarayonida, mehnat faoliyatida va ijodiy izlanishlarda tutgan o'rni yuzasidan ma'lumotlar keltiriladi.*

Kalit so'zlar: *xayol, tasavvur, idrok, xotira, tafakkur, hissiyot, ijodiy faoliyat, ilmiy gipoteza, ta'lim jarayoni, psixologik jarayonlar.*

Аннотация: *В данной статье анализируется психологическая сущность процесса воображения и его роль в умственной деятельности человека, его связь с другими познавательными процессами: восприятием, памятью и мышлением. Представлена информация о роли воображения в процессе обучения, трудовой деятельности и творческой работе.*

Ключевые слова: *воображение, воображение, восприятие, память, мышление, эмоция, творческая деятельность, научная гипотеза, образовательный процесс, психологические процессы.*

Annotation: *This article analyzes the psychological essence of the imagination process and its role in human mental activity, its connection with other cognitive processes: perception, memory and thinking. Information is provided on the role of imagination in the learning process, labor activity and creative research.*

Keywords: *imagination, imagination, perception, memory, thinking, emotion, creative activity, scientific hypothesis, educational process, psychological processes.*

Shaxs psixik jarayonlaridan biri xayol insonning o'tmish tajribalarini qayta ishlab, yangi obrazlar yaratuvchi murakkab bilish jarayoni hisoblanib, tafakkur, xotira, his-tuyg'u va irodaga bevosita ta'sir ko'rsatadi. U bilish faoliyatini faollashtiradi, ijodiy yondashuvni shakllantiradi va emotsional holatlarni boshqarish orqali xulq-atvorni tartibga soladi, bu esa eksperimental va kuzatish metodlari orqali o'rganiladi. g'

Psixologiyada bilish jarayoni xayolni tadqiqi etish davomida unga aqliy jarayon sifatida qiziqish nisbatan yaqinroq vaqtlarda, ya'ni XIX oxiri va XX-asrlar boshlarida vujudga keldi. Xayolning funktsiyasini eksperimental ravishda o'rganishga bag'ishlangan dastlabki.



tadqiqotlar shu davrlarga to'g'ri keladi. Jumladan, tadqiqotchi olimlar S.D. Vladichko, V. Vundt, F. Matveyev, E. Meyman, L.L. Mishchenko va T. Ribolar tomonidan amalga oshirilgan. Keyinchalik bu kabi tadqiqot doirasi kengayib bordi, tasavvur funktsiyasini eksperimental o'rganish imkonini beruvchi bir qancha metodlar ishlab chiqildi. Bundan tashqari olingan ma'lumotlarni nazariy jihatdan talqin qilishga yo'naltirilgan hamda tasavvurning boshqa kognitiv jarayonlar bilan bog'liqligi haqidagi ilmiy ishlanishlar olib borildi. Shuningdek, L.S. Vygotskiyning izlanishlarida xayol ilgari to'plangan individual taassurotlarni bir xil kombinatsiyalar va shakllarda takrorlamaydi, balki ilgari to'plangan taassurotlardan yangi ketma-ketliklarni yaratadi. Boshqacha qilib aytganda, taassurotlar oqimiga yangi narsa kiritish va bu taassurotlarni o'zgartirish, ma'lumki, bu faoliyat natijasida yangi, ilgari mavjud bo'lmagan tasvir paydo bo'ladi hamda bu xayol deb nomlanuvchi faoliyatning asosini tashkil qiladi. Rus olimi S.L. Rubinshteynning fikriga ko'ra xayol bizning "yangi" narsa yaratish qobiliyatimiz va ehtiyojimiz bilan bog'liq bo'lib, xayol - bu o'tmishdagi tajribadan chetga chiqish, uning o'zgarishi demakdir. Shunga ko'ra xayol jarayonining asosiy xususiyati - bu o'tmishdagi tajribadan olingan idrok ma'lumotlari va boshqa materiallarni o'zgartirish va qayta ishlash, natijada yangi tushunchaning paydo bo'lishi orqali sodir bo'ladi.

Xayol vujudga keltirayotgan obrazlar (tasavvur) faqat ongning subyektiv mazmunigina bo'lib qolmaydi, shu bilan birga, bu obrazlar odam larning hayoti va faoliyatida og'zaki va yozma nutqda ifodalanadilar; narsalarda, bo'yoqlarda, tovushlarda, she'r va proza tariqasidagi adabiy asarlarda va san'atning boshqa turlarida gavdalanadi.

Inson psixikasi murakkab va ko'p qirrali tizim bo'lib, unda turli psixik jarayonlar o'zaro chambarchas bog'liq holda faoliyat yuritadi. Ushbu jarayonlar qatoriga sezgi, idrok, xotira, tafakkur, diqqat va xayol kiradi. Har bir psixik jarayon insonning tashqi olamni anglashida muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, ular bir-biriga ta'sir ko'rsatib, yagona psixik faoliyat tizimini hosil qiladi.

Xayol inson psixikasining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u real voqelik obrazlarini qayta ishlash va yangi tasavvurlarni yaratish jarayonidir. Xayol orqali inson mavjud bilim va tajribasiga tayangan holda yangi g'oyalar, tasavvurlar va rejalarining obrazlarini yaratadi. ayniqsa, ijodiy faoliyatda xayol muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologiya fanida xayolning boshqa psixik jarayonlarga ta'siri alohida o'rganilgan. Chunki xayol nafaqat mustaqil psixik jarayon sifatida, balki sezgi, idrok, xotira, tafakkur va diqqat bilan o'zaro bog'liq holda faoliyat yuritadi. Xayol insonning ruhiy rivojlanishi, bilim olish jarayoni va ijodiy faoliyatida muhim omil hisoblanadi.

Psixologiyada xayol inson ongida mavjud tajriba va tasavvurlarga asoslanib yangi obrazlar yaratish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Boshqacha aytganda, xayol bu ilgari idrok qilingan narsa va hodisalarning ongda qayta ishlanishi va yangi kombinatsiyalarda namoyon bo'lishidir. Xayol inson faoliyatida muhim rol o'ynaydi. U kelajakni tasavvur qilish, reja tuzish, muammolarga yangi yechimlar topish va ijodiy faoliyatni amalga oshirish imkonini





beradi. Masalan, yozuvchi asar yaratishda, rassom rasm chizishda yoki olim yangi nazariya ishlab chiqishda xayolga tayanadi.

Xayol va sezgi jarayoni bog'liqligini quyidagicha tushunish mumkin. Sezgi inson psixikasining eng oddiy jarayonlaridan biri bo'lib, u tashqi olamdagi narsa va hodisalarning alohida xususiyatlarini aks ettiradi. Sezgi orqali inson rang, tovush, hid, ta'm va boshqa belgilarni qabul qiladi. Xayol sezgi jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Inson tasavvurlar orqali ayrim sezgi obrazlarini kuchaytirishi yoki o'zgartirishi mumkin. Masalan, inson biror yoqimli voqeani tasavvur qilganda, unda ijobiy hissiyotlar paydo bo'ladi va bu sezgilarga ham ta'sir qiladi. Shuningdek, xayol sezgi orqali olingan ma'lumotlarni qayta ishlashda ham muhim rol o'ynaydi. Sezgi orqali olingan obrazlar xotirada saqlanadi va keyinchalik xayol yordamida yangi kombinatsiyalarda namoyon bo'lishi mumkin.

Xayol va idrok jarayoni bog'liqligida idrok sezgiga nisbatan murakkabroq psixik jarayon bo'lib, u narsa va hodisalarni yaxlit holda aks ettiradi. Idrok orqali inson tashqi olamni to'liqroq anglaydi. Xayol idrok jarayoniga bir necha jihatdan ta'sir qiladi. Avvalo, xayol insonning idrok etish jarayonini boyitadi. Inson o'z tajribasi va tasavvurlariga tayangan holda idrok qilinayotgan obyektни yanada to'liqroq anglaydi.

Xayol va xotira jarayoni bog'liqligi davomida xotira psixikaning muhim jarayonlaridan biri bo'lib, u inson tajribasini saqlash va qayta tiklash vazifasini bajaradi. Xotira orqali inson o'z bilim va tajribasini eslab qoladi. Xayol va xotira o'zaro chambarchas bog'liq jarayonlardir. Xotirada saqlanayotgan tasavvurlar xayol uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xayol esa ushbu tasavvurlarni qayta ishlab, yangi obrazlar yaratadi.

Tafakkur insonning eng murakkab psixik jarayonlaridan biri bo'lib, u muammolarni hal qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarish bilan bog'liq. Xayol tafakkur jarayonini boyitadi va uni ijodiy yo'nalishda rivojlantiradi. Inson muammoni hal qilish jarayonida turli variantlarni xayolida tasavvur qilib ko'radi. Bu esa yangi g'oyalar paydo bo'lishiga yordam beradi.

Diqqat psixik jarayon bo'lib, u inson ongining ma'lum obyektga qaratilishi va shu obyektga jamlanishini ta'minlaydi. Xayol diqqat jarayoniga ham ta'sir ko'rsatadi. Qiziqarli tasavvurlar inson diqqatini uzoq vaqt davomida ushlab turishga yordam beradi. Shu sababli ta'lim jarayonida o'quv materialini obrazli tarzda tushuntirish samarali hisoblanadi.

Xayol inson ijodiy faoliyatining asosiy omillaridan biridir. San'at, fan va texnika sohalarida yangi g'oyalar aynan xayol yordamida yaratiladi. Masalan, adabiyotda yozuvchi obrazlarni yaratishda xayolga tayanadi. Rassom yoki haykaltarosh esa tasavvurlar asosida yangi badiiy asarlar yaratadi. Ilmiy faoliyatda ham xayol muhim rol o'ynaydi. Ko'plab ilmiy kashfiyotlar dastlab olimlarning xayolida paydo bo'lgan g'oyalardan boshlangan.





Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Z. Nishanova, G. Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2006.
- 2.Боровик О.В. Развитие воображения. М.: ООО «ЦГЛ «Рон», 2000.
3. Брушлинский А.В. Субъект: мышление, учение, воображение. М.: Ин-т практической психологии, 1996.
4. Веккер Л.М. Психические процессы. СПб.: Изд-во ЛГУ, 1974. 4. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. СПб: Питер, 2002.
- 5.Umumiy psixologiya. A.V. Petrovskiy tahriri ostida. T., 1992.
- 6.Umumiy psixologiyadan amaliy mashg'ulotlar. T., 1994.

